

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
AKADEMIYASI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.31/30.12.2019.Yu.25.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
AKADEMIYASI**

XODJAYEV SHOXRUX MUZAFFAROVICH

**ODILLIK PRINSIPINING JINOYAT QONUNI NORMALARIGA
TATBIQ ETILISHI (NAZARIY VA AMALIY JIHATLAR)**

12.00.08 – Jinoyat huquqi. Jinoyat-ijroiya huquqi

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

**Contents of the abstract of the dissertation of the doctor of philosophy
(PhD)**

Xodjayev Shoxrux Muzaffarovich

Odillik prinsipining jinoyat qonuni normalariga tatbiq etilishi

(nazariy va amaliy jihatlar) 3

Ходжаев Шохрух Музаффарович

Применение принципа справедливости к нормам уголовного

(теоретические и практические аспекты)..... 25

Khojaev Shokhrukh Muzaffarovich

Application of the principle of justice to the norms of criminal law

(theoretical and practical aspects)..... 47

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 52

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
AKADEMIYASI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.31/30.12.2019.Yu.25.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
AKADEMIYASI**

XODJAYEV SHOXRUX MUZAFFAROVICH

**ODILLIK PRINSIPINING JINOYAT QONUNI NORMALARIGA
TATBIQ ETILISHI (NAZARIY VA AMALIY JIHATLAR)**

12.00.08 – Jinoyat huquqi. Jinoyat-ijroiya huquqi

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida V2024.2.PhD/Yu1482 raqam bilan ro'yxatga olingan.

tsiya O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasida bajarilgan.

tsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash va «Ziyonet» axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Xolikulov Umid Shodiyevich

yuridik fanlar doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Kabulov Rustam

yuridik fanlar doktori, professor

Xujakulov Siyovush Baxtiyorovich

yuridik fanlar doktori, professor

Etakchi tashkilot:

**O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament
tadqiqotlar instituti**

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.31/30.12.2019.Yu.25.02 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 15-may kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: Toshkent sh., Intizor ko'chasi, 68. Tel./faks: (99871) 265-22-52/ (99871) 265-17-53; e-mail: info@akadmvd.uz).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi axborot-resurs markazida tanishish mumkin (AD-1560 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: Toshkent sh., Intizor ko'chasi, 68. Tel.: (99871) 265-22-52.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "25" aprel kuni tarqatildi.

(2025 yil "21"-apreldagi "13" raqamli reestr bayonnomasi).



(Handwritten signature of A.S. Tursunov)

A.S. Tursunov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash rasi, yuridik fanlar doktori, professor

(Handwritten signature of A.D. Xusanov)

A.D. Xusanov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, dotsent

(Handwritten signature of Sh.A. Kulmatov)

Sh.A. Kulmatov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar rasi, yuridik fanlar doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

Dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda aybsiz shaxslarning javobgarlikka tortilishi inson huquqlari va huquqiy adolat prinsiplariga tahdid soluvchi jiddiy muammo sifatida baholanadi. Buni birgina AQSh qamoqxonalariidagi mahkumlarning 2 foizdan 10 foizgacha aybsiz ekanligi, 1989 yildan buyon ushbu mamlakatda 2666 kishi oqlangani va aybsizligi isbotlangan shaxslar shu paytgacha jami 23 950 yildan ortiq ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'tagani misolida ko'rish mumkin. Shuningdek, o'linga hukm qilingan har 100 kishidan 4 nafari begunoh bo'lsa-da, faqat ikki nafari oqlangani, noqonuniy sudlanganlik holatlarining 69 foiz guvohlarning noto'g'ri identifikatsiyasi, 29 foizi soxta iqrorliklar va 70 foizi esa soxta ayblovlar tufayli sodir bo'lishi¹ bu muammoning dolzarbligini yanada tasdiqlaydi. Bu esa, o'z navbatida, jinoyat qonuni normalariga odillik prinsipini samarali tatbiq etish mexanizmlarini takomillashtirish maqsadida chuqur ilmiy tadqiqotlar olib borish zaruratini yuzaga keltiradi.

Jahonda Jinoyat kodeksining Maxsus qismi normalarini ishlab chiqish va takomillashtirishda odillik prinsipi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Jazo siyosatining samaradorligi nafaqat jinoyatga mutanosib sanksiyalarni belgilash, balki sud hukmlarining asoslanganligi, jinoyatga yarasha jazo tayinlash va aybdor shaxslarni javobgarlikdan ozod qilish mezonlarini odilona tarzda ishlab chiqish bilan belgilanadi. Jinoyat huquqiy siyosatda odillik prinsipiga amal qilinishi nafaqat huquqiy tenglikni ta'minlaydi, balki jamiyatda qonun ustuvorligini mustahkamlashda muhim o'rin tutadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, jinoyatchilik darajasining oshishi kambag'allik va ishsizlikning yuqoriligi bilan bog'liq bo'lsa-da, iqtisodiy rivojlanish har doim ham jinoyatchilikning kamayishiga olib kelmeyapti. Bu esa jinoyatchilikka qarshi kurashda faqat iqtisodiy faktorlarga emas, balki jinoyat-huquqiy siyosatdagi odillik prinsipining ustuvorligiga ham alohida e'tibor qaratish zarurligini anglatadi. Odil sudlov amaliyoti, jazo choralarining adolatli belgilanishi va qonunlarning insonparvarlik prinsiplariga muvofiq ishlab chiqilishi jamiyatda jinoyatchilikni kamaytirishga xizmat qiladi. Shu bois jinoyat qonunchiligini takomillashtirishda odillik prinsipiga asoslangan yondashuvni chuqur tahlil qilish va uni sud amaliyotida izchil qo'llash ustuvor vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Bu esa jinoyat qonunchiligini takomillashtirish, odillik prinsipini huquqni qo'llash amaliyotiga samarali integratsiya qilish hamda uning qat'iy ta'minlanishini kafolatlashning dolzarb ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi.

Respublikamiz jinoyat qonunchiligini takomillashtirishda nazariy-falsafiy qarashlar, axloqiy qadriyatlar va xalqaro standartlarning uyg'unlashuvi muhim ahamiyatga ega. Jinoyat-huquqiy prinsiplarning amaliy tatbiq etilishini tahlil qilish, qonun normalarini tizimlashtirish va jinoyatlarni tasniflash orqali sud amaliyotining adolatli va samarali yuritilishini ta'minlash mumkin. Keyingi besh yilda 3 513 nafar shaxsga oqlov hukmi chiqarilishi, 18 026 nafar shaxsning sud zalida ozod qilinishi va 33 515 nafar fuqaroga nisbatan asossiz qo'yilgan ayblovlarning bekor qilinishi mazkur

¹ 33 Startling Wrongful Convictions Statistics [2024 Update]. https://thehighcourt.co/wrongful-convictions-statistics/#Depressing_Wrong_Convictions_Stats_Editors_Picks. (мурожаат санаси 01.02.2025).

yo‘nalishdagi o‘zgarishlarning ahamiyatli ekanini ko‘rsatadi¹. 2024-yilda jinoyat ishlari bo‘yicha sudlar 77 995 nafar shaxsga nisbatan 61 481 ta jinoyat ishini ko‘rib chiqib, 723 nafar shaxsni oqlagan va rehabilitatsiya qilgan. Apellyatsiya va kassatsiya tartibida qayta ko‘rib chiqilgan ishlar natijasida ko‘plab shaxslarga nisbatan sud qarorlari o‘zgartirilgan yoki bekor qilingan. Oliy sud tomonidan ham taftish tartibida ko‘plab ishlar qayta ko‘rib chiqilib, 163 nafar shaxsga nisbatan quyi sudlar qarori bekor qilingan, 281 nafar shaxsga tegishli sud qarorlari o‘zgartirilgan². Bu raqamlar jinoyat-huquqiy prinsiplarning sud amaliyotidagi ahamiyatini yanada chuqur tadqiq etish, qonunchilikni xalqaro standartlarga uyg‘unlashtirish va jinoyat ishlarini odilona yuritish mexanizmlarini takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 21-oktabrdagi PF – 4 850-sonli “Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2017-yil 30-noyabrdagi PF – 5268-sonli “Sud-tergov faoliyatida fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlarini kuchaytirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2020-yil 10-avgustdagi PF – 6041-sonli “Sud-tergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari, 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli “O‘zbekiston 2030” Strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-maydagi PQ – 3723-sonli “Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari va sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining “I. Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mazkur mavzuning ayrim jihatlari U.A. Abdug‘aniev, Sh.Yo. Abduqodirov, Q.R. Abdurasulova, B.D. Axrorov, U.A. Zakirova, R.A. Zufarov, R.K. Kabulov, S.S. Niyozova, Q.P. Payzullaev, Q.Yu. Rozimova, M.X. Rustambayev, F. Taxirov, A.I. Toshpulatov, M. Usmonaliev, A.S. Yakubov kabi milliy olimlarimizning ishlarida o‘z aksini topgan.

MDH davlatlarida jinoyat huquqining odillik prinsipiga oid izlanishlar O.Yu. Bunin, S.A. Galaktionov, A.I. Lazutkin, I.D. Mishina, P.P. Osipov, V.V. Radov, A.I. Ryasov, Yu.A. Frolov, R.N. Xamitov kabi olimlar tomonidan olib borilgan.

Xorijiy mamlakatlarda jinoyat huquqining odillik prinsipining tarixiy va zamonaviy jihatlariga oid ilmiy izlanishlarni Boguski O., George P. Fletcher, Dvorkin Robert, Maks Fasmer, Matti Joutsen, Martin Vasik, Peno M., Endryu Eshvort kabi xorijiy olimlar tomonidan olib borilgan.³

¹ https://strategy.uz/index_murojaat_sanasi_07.02.2022

² <https://sud.uz/news-2025-02-07-1/>

³ Бу ва бошқа муаллифларнинг асарлари диссертациянинг фойдаланилган адабиётлар рўйхатида

Biroq, odillik prinsipining milliy jinoyat qonunchiligimiz normalariga tatbiq etilishi nuqtai nazardan ilmiy va amaliy jihatdan tadqiq etilmagan, odillik prinsipining xalqaro standartlar orqali jazolarning miqdorlari chegarasi bo'yicha chuqur va mustaqil kompleks tadqiqotlar amalga oshirilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti IIV Akademiyasining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq, "Jinoyat va jinoyat-ijroiya qonunchiliklarini takomillashtirishning dolzarb masalalari" mavzusidagi loyiha doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi odillik prinsipining jinoyat qonuni normalariga tatbiq etilishini takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratdir.

Tadqiqotning vazifalari:

jinoyat kodeksidagi prinsiplarni tizimli tahlil qilish orqali ularning shakllanishi, evolyusiyasi va zamonaviy huquqiy tizimdagi ahamiyatini ilmiy asosda baholash;

odillik prinsipining konseptual asoslarini ochib berish, uning huquqiy tabiati va jinoyat huquqidagi ifodasini tahlil qilish, shuningdek, xalqaro va milliy qonunchilikda tatbiq etilishini o'rganish;

odillik prinsipining jinoyat kodeksi normalariga tatbiq etilishini tahlil qilish hamda uning jinoyat-huquqiy munosabatlardagi ijtimoiy ahamiyati va zaruratini asoslash;

jazo turlarini belgilashda huquqiy mexanizmlarni tahlil qilish, ularning odillik prinsipiga muvofiqligini baholash va amaliyotdagi samaradorligini aniqlash;

jinoyat tarkibi belgilari va jazo turlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni o'rganish, jazo miqdorini aniqlashdagi ta'sirini baholash hamda javobgarlik va jazoning o'zaro muvozanatini ta'minlash mexanizmlarini tahlil qilish;

jazo miqdorlarini belgilashda odillik prinsipining amaliy ahamiyatini o'rganish, xalqaro tajribani tahlil qilish va O'zbekiston Respublikasi jinoyat kodeksida uning tatbiq etilish samaradorligini baholash;

jinoyat qonunchiligida odillik prinsipini yanada takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob'ekti odillik prinsipining O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi (*keyingi o'rinlarda – JK*) Maxsus qism moddalariga tatbiq qilinishi bilan bog'liq jinoyat-huquqiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning predmetini JKning odillik prinsipiga oid munosabatlarni tartibga soluvchi jinoyat qonunchiligi normalari, JKning odillik prinsipi, uning asosiy parametrlari, rivojlanish tendensiyasi va qonuniyatlari, ayrim xorijiy mamlakatlar tajribasi hamda xalqaro kelishuv va shartnomalar, yuridik fanda mavjud konseptual yondashuvlar va ilmiy-nazariy qarashlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda bilishning ilmiy usullaridan – tarixiylik, mantiqiy-yuridik, formal, kuzatish, qiyosiy-huquqiy va tizimli tahlil, statistik usullar, analiz va sintez, induksiya va deduksiya, anketa so'rovlari, statistik ma'lumotlar tahlili, funksional yondashuv, tizimlilik, surishtiruv-tergov amaliyoti hamda jinoyat ishlarini o'rganish va boshqa usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

jinoiyat qonuni normalariga odillik prinsipini tatbiq etish zaruriyati jinoiy javobgarlikni aniq va asosli belgilash talabidan kelib chiqqani bois, Jinoiy kodeksining 248-moddasi birinchi qismi dispozitsiyasida tegishli litsenziyalarsiz yoki ruxsatnomalarsiz o'qotar qurolni, o'q-dorilarni, o'qotar qurolning asosiy qismlarini ishlab chiqarish, ta'mirlash, olish, saqlash, olib yurish, tashish, jo'natish, ulardan foydalanish, shuningdek portlovchi moddalarni, portlatish vositalarini yoki portlatish qurilmalarini ishlab chiqish, ishlab chiqarish, olish, saqlash, tashish, ulardan foydalanish kabi alohida harakatlarga ajratib chiqish zarurati asoslab berilgan;

jinoiyat qonuni normalariga odillik prinsipini tatbiq etish zaruriyati jinoiyat va jazo o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash hamda adolat mezonlariga muvofiq huquqiy tartibni mustahkamlash talabidan kelib chiqqani bois, o'n sakkiz yoshga to'lmagan jabrlanuvchining nomusiga tajovuz qilganlik hamda o'n olti yoshga to'lmagan shaxs bilan jinsiy aloqa qilish jinoiyati uchun jinoiyatga tayyorgarlik ko'rganlik hamda suiqasd qilganlik uchun jazoning miqdori yoki muddati JK Maxsus qismining tegishli moddasida nazarda tutilgan eng ko'p jazoning to'rtidan uch qismidan oshmasligi kerakligi haqidagi qoidaning qo'llanilmasligi lozimligi isbotlangan;

Jinoiyat qonuni normalariga odillik prinsipini tatbiq etish zaruriyati jinoiyat huquqining fundamental asoslarini mustahkamlash hamda jazoning adolatli va differentsiyalangan tarzda qo'llanilishini ta'minlash talabidan kelib chiqqani bois, JK 5-moddasida belgilangan fuqarolarni qonun oldida tengligi prinsipini, ushbu prinsip aslida odillik prinsipining tarkibi hisoblanganligi sababli JKdan chiqarish asoslab berilgan.

Jinoiyat qonuni normalariga odillik prinsipini tatbiq etish zaruriyati jinoiy javobgarlikni shaxsiy aybdorlik prinsipi asosida belgilash va ijtimoiy xavfli qilmish uchun javobgarlikni aniqlashtirishni talab etgani bois, JK 8-moddasida odillik prinsipini "Shaxs qonunda belgilangan tartibda aybi isbotlangan ijtimoiy xavfli qilmishlari uchungina javobgar bo'ladi" mazmunidagi qoidani kiritish lozimligi asoslab berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

JKni takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan;

xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalari, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va ayrim xorijiy davlatlar qonunchiligining tahlili asosida umuminsoniy qadriyatlar tushunchasini JKda mustahkamlash asoslantirilgan;

insonparvarlik va odillik prinsiplari qiyosiy tahlil qilinib, JKning fuqarolarni respublika Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya qilish ruhida tarbiyalash vazifasi, aybdorga qilmishiga nomutanosib jazo tayinlashga zamin yaratishi mumkinligi isbotlangan, JK 2-moddasini takomillashtirish taklifi ilgari surilgan;

insonparvarlik va odillik prinsiplarini muvofiqlashtirish maqsadida insonparvarlik prinsipi tushunchasini takomillashtirish zarurati asoslab berilgan;

shaxsning aybi isbotlangan qilmishi uchun javobgar bo'lishi odillik prinsipining tarkibiy qismi ekanligi asoslantirilgan.

Tadqiqotning ishonchliligi. Tadqiqot natijalari xalqaro huquq, milliy qonunchilik normalari, rivojlangan davlatlar tajribasi hamda qonunni qo'llash amaliyotiga tayangan holda asoslangan. Shuningdek, sotsiologik tadqiqot doirasida

350 nafar sud-tergov amaliyoti xodimlari ishtirokida anketa so'rovi o'tkazilgan. Statistik ma'lumotlar va 200 ta sud hukmlari tahlilining natijalari umumlashtirilib, tegishli hujjatlar rasmiylashtirilgan. Xulosa, taklif va tavsiyalar aprobeasiyadan o'tkazilib, ular yetakchi milliy va xorijiy nashrlarda e'lon qilingan hamda olingan natijalar vakolatli davlat idoralari tomonidan tasdiqlanib, amaliyotga joriy qilingan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining *ilmiy ahamiyati* shundan iboratki, ishlab chiqilgan ilmiy xulosa, unda bildirilgan takliflar va tavsiyalardan jinoyat-huquqiy qonun ijodkorligi, shuningdek jinoyat huquqi, kriminologiya, jinoyat-ijroiya huquqi bo'yicha o'quv jarayonida, sohaga oid nazariy (doktrinal) bilimlarni boyitish va yangi ilmiy tadqiqotlar o'tkazishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining *amaliy ahamiyati* shundaki, ularning qonun ijodkorligi faoliyatida jinoyat-huquqiy normalarning yangi sanksiyalarini belgilash va amaldagi sanksiyalarni takomillashtirish chog'ida bevosita foydalanilishi, shuningdek sudlar tomonidan odilona jazo tayinlashda bilvosita qo'llanilishi mumkinligida, jinoyat qonun hujjatlarining tegishli normalarini sharhlashda, milliy qonunchilikni takomillashtirish va «Jinoyat huquqi», «Kriminologiya», «Jinoyatlarni kvalifikasiya qilish» va «Jinoiy-huquqiy siyosat» kabi o'quv fanlaridan mashg'ulotlar o'tkazishda, ushbu fanlar bo'yicha darsliklar, o'quv qo'llanmalar va metodik materiallar tayyorlashda qo'llash mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tadqiqot ishi bo'yicha olingan ilmiy natijalardan quyidagilarda foydalanilgan:

JK 248-moddasining birinchi qismi dispozitsiyasini tegishli litsenziyalarsiz yoki ruxsatnomalarsiz o'qotar qurolni, o'q-dorilarni, o'qotar qurolning asosiy qismlarini ishlab chiqarish, ta'mirlash, olish, saqlash, olib yurish, tashish, jo'natish, ulardan foydalanish, shuningdek portlovchi moddalarni, portlatish vositalarini yoki portlatish qurilmalarini ishlab chiqish, ishlab chiqarish, olish, saqlash, tashish, ulardan foydalanish degan tahrirda bayon qilish to'g'risidagi takliflardan 2022-yil 31-maydagi O'RQ – 772-son “Qurol to'g'risidagi qonunchilik takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida”gi Qonun 2-moddasining 3-bandida (O'zbekiston Respublikasi JKning 248-moddasiga kiritilgan o'zgartirishlar) o'z aksini topgan (*O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik Palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2024-yil 28-oktyabrdagi 01/Q-08 – 63-sonli dalolatnomasi*). Mazkur taklifning qabul qilinishi JKning 248-moddasi birinchi qismi dispozitsiyasida noqonuniy harakatlarning aniq ajratilishiga va jazo tayinlashda sudlar faoliyatida odillik prinsipiga rioya etilishida huquqiy asos yaratgan;

o'n sakkiz yoshga to'lmagan jabrlanuvchining nomusiga tegish yoki unga nisbatan zo'rlik ishlatib, jinsiy ehtiyojini g'ayritabiiy usulda qondirganlik, o'n olti yoshga to'lmagan shaxs bilan jinsiy aloqa qilish yoki jinsiy ehtiyojini g'ayritabiiy usulda qondirish, voyaga yetmagan shaxs tavsiflangan yoki tasvirlangan pornografik maxsulotni tarqatish, reklama qilish, namoyish qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirganlik uchun jinoyatga tayyorgarlik ko'rganlik hamda suiqasd qilganlik uchun jazoning miqdori yoki muddati ushbu JK Maxsus qismining tegishli moddasida nazarda tutilgan eng ko'p jazoning to'rtidan uch qismidan

oshmasligi kerakligi haqidagi qoidaning qo'llanilmasligi haqidagi takliflardan 2023-yil 11-apreldagi O'RQ – 829-son “Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimini yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi Qonun”ning 3-moddasi 2-bandi (JKning 58-moddasi moddasi ikkinchi qismiga kiritilgan o'zgartirishlar)ni shakllantirishda foydalanilgan (*O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik Palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2024-yil 28-oktyabrdagi 01/Q-08 – 63-sonli dalolatnomasi*). Ushbu taklifning qabul qilinishi voyaga yetmaganlarga nisbatan sodir etilgan jinsiy jinoyatlar uchun jinoiy javobgarlikning odilligini ta'minlashga xizmat qilgan.

JK 5-moddasida belgilangan fuqarolarni qonun oldida tengligi prinsipini, ushbu prinsip aslida odillik prinsipining tarkibi hisoblanganligi sababli JKdan chiqarish haqidagi takliflardan O'zbekiston Respublikasi JKga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqidagi qonun loyihasi matnini ishlab chiqishda foydalanilgan (*O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik Palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2024-yil 28-oktyabrdagi 01/Q-08 – 63-sonli dalolatnomasi*). Ushbu taklifning qabul qilinishi sudlar tomonidan hukm chiqarilishida odillik prinsipini qo'llash samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

JK 8-moddasida belgilangan odillik prinsipini “Shaxs qonunda belgilangan tartibda aybi isbotlangan ijtimoiy xavfli qilmishlari uchungina javobgar bo'ladi” mazmunidagi qoidani kiritish borasidagi taklifidan JKga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqidagi qonun loyihasini ishlab chiqishda foydalanilgan (*O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik Palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2024-yil 28-oktyabrdagi 01/Q-08 – 63-sonli dalolatnomasi*). Ushbu taklifning qabul qilinishi sudlar tomonidan hukm chiqarilishida odillik prinsipini qo'llash samaradorligini oshirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot ishining natijalari 4 ta ilmiy anjumanda, jumladan, 2 ta xalqaro, 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida aprobatsiyadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 17 ta ilmiy ish, shundan, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 13 ta (shundan 6 ta respublika va 7 ta xorijiy) jurnallarda maqolalar chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiyaning tuzilishi kirish, uch bob, 8 paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 141 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi) tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy

ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob'ekti va predmeti, usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy qilinishi, aprotatsiyasi, natijalarining e'lon qilinganligi, dissertatsiya hajmi va tuzilishi yoritilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Jinoyat huquqida jinoyat kodeksi prinsiplari va odillik prinsipining umumiy tavsifi**" deb nomlangan bo'lib, unda JK prinsiplari tushunchasi va ularning tahlili, odillik prinsipi tushunchasi, mazmuni va prinsipni amalga oshirish bosqichlari yoritilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 8-avgustdagi "Norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"¹gi Farmoni asosida belgilangan vazifalarni amalga oshirish asnosida qilmishlarni kriminalizatsiya qilish va jinoiy javobgarlikni belgilashning qoida va prinsiplarini shakllantirish asoslariga nisbatan doktrinal yondashuvlarni tadqiq etish zarurati mavjuddir.

JKning vazifasi, asosan, jinoyat ishlari bo'yicha odil sudlov tizimi faoliyat yuritadigan chegaralar parametrlarini belgilashdan iborat bo'lib, u qanday qilmishlar jinoyat ekanligi va ularni sodir etganlarga nisbatan qanday choralar ko'rish kerakligini aniq belgilash jarayonida jinoyat huquqi prinsiplarining maqsad va vazifalarini belgilab beradi, ularning mafkuraviy, siyosiy, himoya va tartibga solish mazmunini oydinlashtiradi.

Dissertant mazkur bobda dastlab "prinsip" so'zini lug'aviy jihatdan tahlil qilib, mazkur so'z fransuz yoki nemis tilidan olinganligini, lotincha "prinsipium"ga borib taqalishi va tom ma'noda "ibtido" mazmunini anglatishi haqidagi xulosaga kelgan.

Muallif prinsip deganda, odatda, qonunda aks etgan yoki tabiiy huquqlardan, ahloq me'yorlaridan hosil bo'lgan va huquq tizimida umume'tirof etilgan ma'lum bir qoida, ko'rsatma tushunilishi, o'z-o'zidan, prinsiplar faqat huquqning o'zida emas, balki ildizi huquqiy madaniyatda bo'lib, ma'lum ma'noda jinoyat qonunchiligi negizini tashkil qilishi, shu doirada ular turfa shakl va mazmun kasb etishi mumkinligini e'tirof etadi.

Tadqiqotchi tomonidan jinoiy javobgarlikni shakllantirish modellarining asosiy yo'nalishlarini shartli ravishda teologik, huquqiy pozitivizm va tabiiy huquq ta'limotlariga bo'lib o'rganish taklif etilgan. Mazkur ta'limotlarning har birini mavjud qonunchilikning shakllanish falsafasi orqali tadqiq etib, ushbu tasniflar orqali prinsiplarning ijtimoiy zaruriyati asoslangan.

Muallif ushbu bobda prinsiplar mavhum, ular faqat g'oyalar, ta'limotlar ekanligi, ularni hayotga, real amaliyotga tatbiq etish modeli, mexanizmi zarurligi, ushbu prinsiplarni idrok etish shakllari jinoyat huquqi turini shakllantirish modellarini idrok etishga ta'sir qilishi, bunday ideallar qonunni qo'llash amaliyotida amalga oshirilgan modellardan emas, balki yuridik fan tomonidan shakllantirilgan muayyan modellardan kelib chiqishi kerakligini ta'kidlaydi. Bunday ideal sifatida ijtimoiy himoya modeliga yoki jazolash modeliga mos keladigan jinoiy javobgarlik modeli bo'lishi, ular qo'llanishi mumkin bo'lgan jinoyat huquqi tizimini baholash mezonini bo'lishi mumkinligini asoslagan.

¹ <https://lex.uz/ru/docs/3858817>

Mazkur bobda muallif prinsiplarning funksiyalarini quyidagicha tasniflash lozimligini ta'kidlaydi:

– huquq normalarni bir xilda shakllantiradi, qonun chiqaruvchi uchun yetakchi g'oyalar sifatida huquqiy normalarni takomillashtirish yo'llarini belgilaydi;

– turli huquq normalari bilan boshqa normativ huquqiy talablar o'rtasida muhim, barqaror, zaruriy bog'liqlikni ta'minlaydi, qonun ijodkorligi va huquq normalarini tizimlashtirish, sharhlash va amalga oshirish jarayonida muhim mo'ljal bo'lib xizmat qiladi;

– jamiyat va huquqiy tizim rivojlanishi va faoliyatining asosiy qonuniyatlari o'rtasidagi bog'lovchi bo'g'in hisoblanadi;

– huquqiy normalar qo'llanishini yo'naltiradi, u yoki bu huquqiy masalani hal qilishning umumiy yo'nalishini belgilaydi.

Ushbu bobda jinoyat huquqi prinsiplarining vazifalari, funksiyalari, turlari va boshqa jihatlari tahlil qilinib, metadarajada, birinchi va ikkinchi darajada ko'rib chiqilishi lozim bo'lgan prinsiplar mavjud, degan xulosaga kelingan va mazkur prinsiplar huquqning umumiy prinsiplaridan bo'lib, qonunchilikda mustahkamlangan prinsiplardan farqli o'laroq, ularning boshqacha tarzda qo'llanilishi, jinoyat huquqining tipini shakllantirishga yordam beradi degan g'oya ilgari surilgan.

Birinchi darajadagi prinsiplar JK 1-moddasida o'z aksini topgan bo'lib, unga ko'ra Konstitutsiya va xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalari jinoyat qonunchiligining asosi hisoblanadi. Ikkinchi darajadagi prinsiplar, JKning 4-10-moddalarida mustahkamlangan maxsus prinsiplardan iboratdir.

Muallif, xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalari va O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi jinoyat-huquqiy tizimning turini shakllantirish nuqtasi hisoblanishi, biroq ular o'z-o'zidan qonunchilikning umumiy sohalarini, xususan, jinoyat huquqini tizimlashtira olmasligi, qonunchilik ularga singdirilgan faktlar yoki g'oyalar orqali tizimlashtirilib borilishi, jinoyat huquqini shakllantiruvchi prinsiplarga huquq doirasidagi faoliyatni shakllantiruvchi o'zgarmas standartlar, texnik ko'rsatmalar sifatida yondashish lozimligi to'g'risidagi xulosaga kelgan.

Huquq prinsiplari ichida odillik prinsipi muhim huquqiy va ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Odillik prinsipining davlat va jamiyat hayotida tutgan o'rni, ko'lami, axloqiy, tarixiy, huquqiy jihatlari beqiyos hisoblanishi bois tadqiqotchi odillik prinsipining jamiyatdagi munosabatlarda qadrlanishiga oid tarixiy faktlarni tahlil qilib, yurtimiz hududida zardushtiylikning muqaddas kitobi "Avesto"dan tortib, muqaddas islom dini arkonlari va undan keyingi davrda Amir Temurning "Temur tuzuklari"da ham mazkur prinsipga bosh mezon sifatida qaralganini e'tirof etadi. Shuningdek, odillik prinsipi ko'plab xalqaro-huquqiy hujjatlarda ham mustahkamlanganligi xususan, BMT Bosh Assambleyasining 1948 yildagi "Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi"¹ yoki 1966 yil 19 dekabrda qabul qilingan "Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro Pakt"² kabi xalqaro-huquqiy hujjatlarda ham adolat g'oyasi yaqqol ifodalanganligini asoslaydi.

¹ https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/declarations/declhr.shtml

² https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/pactpol.shtml

Xalqaro huquqning umume'tirof etilgan norma va prinsiplarini tan olingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 14-moddasiga binoan, "Davlat o'z faoliyatini inson va jamiyat farovonligini ko'zlab, ijtimoiy adolat va qonuniylik prinsipi asosida amalga oshiradi". Mazmuni va etimologik kelib chiqishiga ko'ra odillik (justitia) huquqqa (jus) borib taqaladi hamda lotincha "justitia" so'zi o'zbek tiliga "odillik", "odil sudlov" sifatida tarjima qilinadi.

Muallif "odillik" so'zining arabcha "adalat(un)" so'zidan olinganini, bu so'z "to'g'rilik" ma'nosini anglatuvchi "adala" fe'lidan kelib chiqqanini va "haqqoniylik" mazmunini ifodalashini ta'kidlaydi. Shuningdek, adolat tushunchasining falsafiy va huquqiy jihatlarini tahlil qilingan, uning jamiyatda bosh mezon sifatida baholanishi hamda yuridik ma'noda **adolat kategoriyasi** xulq-atvor me'yorlari, inson huquqlari va erkinliklari, kishilarning huquqlari va ularning burchlari, qilmish va jazo o'rtasidagi muvofiqlik haqidagi tasavvurlarni o'zida mujassamlashtiradi. Buning ayrim ko'rinishi – huquqbuzarlik va yuridik javobgarlik o'rtasidagi, jinoyat va jazo o'rtasidagi o'zaro nisbat ekanligi to'g'risidagi xulosaga kelgan.

Dissertant, adolat ikki – o'lchash va baholash amaliga egaligi va nisbiyligi sababli uning ikki yoqlama xususiyati namoyon bo'lishini, "tenglik va individuallashtirish – jazoning odilligi talabi mazmunini belgilovchi ikki asosiy g'oya ekanligini ta'kidlaydi. Ammo odillik prinsipi va jazoni individuallashtirish ayni bir narsa emasligi, individuallashtirish doimo aybdorning shaxsiga taalluqli bo'lishi, odillikda esa shaxsiy va ijtimoiy manfaatlar ham hisobga olinishini keltirib o'tadi. Qonun ijodkorligida odillik prinsipi: a) qilmishlarni kriminalizatsiya va dekriminlizatsiya qilish; b) penalizatsiya, ya'ni JK Maxsus qismi tegishli normasi sanksiyasining o'zgartirilishi; v) sudlar tomonidan jazo tayinlash; g) jinoyiy javobgarlikdan ozod etishda amalga oshiriladi.

JK 8-moddasi 1-qismiga muvofiq, odillik uch element: 1) jinoyatning og'ir-yengilligi, 2) aybning ijtimoiy xavflilik darajasi, 3) shaxsning ijtimoiy xavflilik darajasi hisobga olinishini talab etadi. Muallif mazkur tasnif asosida har bir elementni alohida tahlil qilib, JKning 8-moddasida mustahkamlangan odillik prinsipining amal qilish doirasiga nafaqat huquqni qo'llash faoliyati, balki qonun ijodkorligi jarayoni ham kirishi lozimligi, zero qonun ijodkorligida odilona tizimlilikka rioya etilmasligi jinoyat qonunining odilligiga putur yetkazishi, bu esa, o'z navbatida, uni qo'llashda adolatsizlikka yo'l qo'yilishiga sabab bo'lishi to'g'risidagi xulosaga kelgan.

Dissertant odillik prinsipining yuqoridagi muhim jihatlarini tahlil qilib, odillik prinsipiga jinoyat-huquqiy nuqtai nazardan mualliflik ta'rifini ishlab chiqqan. Unga ko'ra adolat o'zgarmas konstanta bo'lib, har qanday zamonda yaxshilik sifatida tan olingan amallar asosida shakllangan urf-odatlariga tayanadi. Biroq bir ijtimoiy guruh tomonidan yangi amal to'g'ri deb tan olinib, odat tusiga kirishi uni yaxshilikka asoslangan deb topish uchun asos bo'lmaydi. Adolat yig'ma tushuncha bo'lib, JKda mustahkamlangan aksariyat prinsiplar: qonuniylik, fuqarolarning qonun oldida tengligi, insonparvarlik, odillik, ayb uchun javobgarlik, javobgarlikning muqarrarligi prinsiplarini ham qamrab oladi.

Mazkur bobda muallif odillik prinsipini amaliyotga tatbiq etilishini ham tahlil qilgan va jinoyat huquqida odillik prinsipi ikki bosqichda: qonun ijodkorligi va

qonunni qo'llash bosqichlarida amalga oshirilishi mumkin va lozim, degan xulosaga kelgan.

Qonun ijodkorligi bosqichida odillik prinsipi qilmishlarni kriminalizatsiya va dekriminalizatsiya qilishda, jinoyatlarni tasniflashda, jinoyatlar uchun javobgarlikni yengillashtirish yoki og'irlashtirishda, shuningdek jinoiy javobgarlikka tortish va jazo tayinlash hamda ulardan ozod qilish holatlarini belgilashda to'la amalga oshirilishi lozim.

Odillik prinsipini qonunni qo'llash bosqichida amalga oshirishning shartlari sifatida: 1) jinoiy javobgarlikka adolatli tortish va undan ozod qilish; 2) qilmishni to'g'ri kvalifikatsiya qilish; 3) adolatli (oqlov yoki ayblov) hukm chiqarish; 4) adolatli (tegishli turdagi, muddat va miqdordagi) jazo tayinlash; 5) jazodan adolatli ozod qilish; 6) boshqa jinoyat-huquqiy ta'sir choralarini adolatli qo'llashni qayd etish mumkin.

Shuningdek muallif, jinoyat qonunida odillik prinsipi kengroq ta'riflanishi qonunni qo'llovchiga ham, qonun chiqaruvchiga ham bevosita qaratilishi lozimligi, shu bois JKda odillik prinsipi shunday ta'riflanishi kerakki, qonun chiqaruvchi sanksiyalarni belgilashda unga so'zsiz rioya qilishi, buning uchun JK 8-moddasining birinchi qismiga o'zgartirish kiritish, yuqoridagi normani quyidagi tahrirda bayon etish lozim deb hisoblaydi:

“8-modda. Odillik prinsipi

Shaxs qonunda belgilangan tartibda aybi isbotlangan ijtimoiy xavfli qilmish uchungina javobgar bo'ladi.

Jinoyat sodir etgan shaxslar jinsi, irqi, millati, tili, dini, e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, bir xil huquq va majburiyatlarga ega bo'lib, qonun oldida tengdirlar.

Jinoyat sodir etishda aybdor bo'lgan shaxsga nisbatan qo'llaniladigan jazo yoki boshqa huquqiy ta'sir chorasi sodir etilgan qilmishning ijtimoiy xavflilik xususiyati va darajasiga, aybning shakli va shaxsning tavsifiga muvofiq bo'lishi kerak.

Hech kim aynan bitta jinoyat uchun ikki marta javobgarlikka tortilishi mumkin emas”.

Ishning ikkinchi bobi “Odillik prinsipining jinoyat qonuniga tatbiq qilinishi va jazo turlarini odilona belgilashdagi ahamiyati” deb nomlangan bo'lib, unda jazo turlarini adolatli o'rnatish shartlari va adolatli jazo turlarini o'rnatishda jinoyat tarkibining ahamiyati tadqiq etilgan.

Ushbu bobda, muallif jinoyat uchun jazo tayinlashda odillik mezoniga qat'iy amal qilinishi jazoning maqsadiga erishish imkonini berishi va jazoning samaradorligini oshirishga ta'sirini aniqlash uchun tahlillarni amalga oshirgan. Shundan kelib chiqib, jazolarni individuallashtirish uchun muqobil jazoli sanksiyalarda jazoning uch asosiy turi belgilanishi, bunda o'rtacha og'ir jazo namunaviy jazo, ya'ni mazkur jinoyatni sodir etganlik uchun jazoni yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlar mavjud bo'lmaganda tayinlanadigan jazo hisoblanishi lozim, deb hisoblaydi.

Shu bilan birga sanksiyada og'irlik darajasiga ko'ra o'rtacha jazo turi namunaviy deb, sanksiyada belgilangan namunaviy jazo turining o'rtacha miqdori esa – namunaviy miqdor deb belgilanishi, jazoni yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi barcha holatlarga emas, balki sodir etilgan jinoyatning barcha oqibatlarini va holatlariga

hamda aybdorning shaxsiga jazo turi va miqdorini (muddatini) individuallashtirish chogʻida baho berish talab etiladi. Sud agar lozim deb topsa, jazoning namunaviy turi va (yoki) miqdori chegarasidan tashqarida jazoning ogʻirroq yoki yengilroq turi va miqdorini tanlashga majbur boʻladi. Hukmda sudya nima uchun ayni shu jazo turi va miqdorini tanlaganligi oʻz aksini topishi lozim.

Dissertant JK Maxsus qismi normalari sanksiyalaridagi jazolarni tahlil qilib, ularda oʻrnatilgan jazo turlari ulushi hozirgi vaqtda quyidagicha koʻrinishga ega ekanligini aniqlagan:

- 1) jarima – 312 ta;
- 2) muayyan huquqdan mahrum qilish – 115 ta;
- 3) jamoat ishlari – 242 ta;
- 4) axloq tuzatish ishlari – 263 ta;
- 5) xizmat boʻyicha cheklash – 17 ta;
- 6) ozodlikni cheklash – 289 ta;
- 7) intizomiy qismga joʻnatish – 14 ta;
- 8) ozodlikdan mahrum qilish – 535 ta;
- 9) umrbod ozodlikdan mahrum qilish – 2 ta moddada belgilangan.

Shuningdek, JK Maxsus qismining 5 ta moddasida bevosita javobgarlikdan ozod etish hamda 30 ta moddasida u yoki bu shartlar asosida jazodan ozod etish yoxud ozodlikdan mahrum etish tariqasidagi jazoni qoʻllamaslik toʻgʻrisidagi qoidalar oʻz ifodasini topgan.

Sanksiyalarning tahlili ogʻir jinoyatlar uchun asosiy jazolarning ikki muqobil turi – jarima va ozodlikdan mahrum qilish nazarda tutilgan sanksiyalar anchani tashkil etayotganligi, sanksiyalarda ogʻirlik darajasiga koʻra oraliq xususiyatga ega boʻlgan jazolarning yoʻqligi adolatli jazo tayinlash uchun lozim darajada imkon beryotganligi asoslangan.

Dissertant olimlarning sanksiyalarni toifalarga ajratish boʻyicha fikrini tahlil qilib, bu borada jinoyatlarning toifalariga mos ravishda penallashtirish odillik prinsipiga muvofiq boʻlmasligi, jazoning ogʻirlik darajasiga nafaqat uning turi, balki miqdori (muddati) ham taʼsir koʻrsatishi sababli bu borada oʻzgacha yondashuv, yaʼni jinoyatlarni odilona penallashtirish uchun turli jazolar oʻrtasidagi shartli nisbatni muayyan miqdorda belgilash lozimligini taʼkidlaydi.

Dissertant, ogʻir jinoyatlar uchun belgilangan sanksiyalarda, asosan, faqat ikki asosiy jazo turi – jarima va ozodlikdan mahrum etish nazarda tutilgani ustuvor ekanini aniqlagan. Shu bilan birga, oʻtkazilgan soʻrov natijalariga koʻra, sudyalari va huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarining 38 foizi jazo turlarini diversifikatsiya qilish, yaʼni muqobil asosiy jazo turlarini koʻpaytirish zarurligini taʼkidlagan. Sanksiyalarda jazoning ogʻirlik darajasiga mos oʻrtacha (oraliq) turlar mavjud emasligi esa sud tomonidan adolatli va individuallashtirilgan jazo tayinlash imkoniyatini cheklashiga olib kelayotgani dissertant tomonidan asoslangan va tahlillar asosida ushbu xulosaga kelgan.

Muallif mazkur gʻoyani JK 61-moddasida jazolarni qoʻshish yoʻli bilan ularning muddatlarini aniqlash uchun ayrim turdagi jazo muddatlarining ozodlikdan mahrum qilish bilan shartli nisbati belgilanganligi, bu taklif ogʻirlik darajasi bir xil boʻlgan jinoyatlar uchun turli jazo miqdorlari nazarda tutilgan va aksincha, ogʻirlik darajasi

turlicha bo'lgan jinoyatlar uchun deyarli bir xil jazo miqdorlari nazarda tutilgan muqobil sanksiyalarda odillik prinsipiga rioya etilmaganlik hollarini misollar orqali asoslab bergan.

Tadqiqotchi adolatli jazo turlarini o'rnatishda jinoyat tarkibi og'irlashtiruvchi belgilarining o'rni va ahamiyati ulkanligi, ularni inobatga olish birinchidan, har bir holatda jazoni individuallashtirish va javobgarlikni differentsiatsiya qilish uchun shart-sharoit yaratishini ta'kidlab, jinoyat tarkibining belgilariga qarab jazo turlarini belgilashning odilligini ta'minlashi mumkin va lozim degan xulosa qiladi. Mazkur bobda muallif, jinoyatning har bir belgisiga ko'ra jazo turlarining muqobilligi jinoyat qonunining odillik prinsipiga mutanosib emasligini tanqid qiladi. Jinoyat-huquqiy normalarning sanksiyalarida jazo turlarini adolatli o'rnatishning yana bir zaruriy sharti – muqobil sanksiyalarda og'irlik darajasiga ko'ra oraliq xususiyatga ega bo'lgan jazo turlarini belgilash, shuningdek adolatli jazo turlarini o'rnatishning boshqa bir sharti jinoiy javobgarlikka tortilishi lozim bo'lgan barcha toifadagi shaxslarga nisbatan sanksiyalarni adolatli qo'llanilishi imkoniyatining mavjudligidir.

Tadqiqot ishining uchinchi bobi **“Odillik prinsipining jazo miqdorlarini odilona belgilashga tatbiq etilishi”** deb nomlangan bo'lib unda, jazolar miqdorlarining chegarasi va oraliqlarini, jinoyat tarkibi belgilariga qarab jazolarning miqdorlarini odilona belgilash, JK normalariga odillik prinsipining tatbiq etilishi borasidagi masalalar tadqiq etilgan.

Dissertant, jinoyat qonuni normalaridagi odillik prinsipi sud amaliyotida, ayniqsa, jinoyat uchun jazo tayinlash jarayonida ko'proq namoyon bo'lishini, shu ma'noda jazo tayinlashda uning miqdorlari chegarasini odillik prinsipiga tayangan holda belgilash nihoyatda dolzarb ahamiyat kasb etishini ta'kidlaydi.

Muallif bu boradagi tahlillari natijasida jazo odillik prinsipiga rioya qilgan holda miqdorlarining chegarasini belgilashda ikki vazifani bajarishi: a) tegishli jinoyatga muvofiq deb topilishi mumkin bo'lgan jazoning yuqori chegarasini belgilashi; b) sanksiyaning quyi chegarasini belgilashga ta'sir etishi lozim, degan xulosaga kelgan. Tadqiqotchi mazkur tasnifga qo'shimcha ravishda jazo miqdorlarining o'rtacha ko'rsatkichini aniqlash ham muhimligini, zotan jazoning o'rtacha miqdori u yoki bu jinoyat ijtimoiy xavfliligi o'rtacha darajasining ko'rsatkichi hisoblanishi har bir jinoyat esa qonunda ijtimoiy xavflilikning o'rtacha, umumiy darajasini hisobga olib ta'riflanishini asoslaydi.

Sanksiyada jazoning o'rtacha miqdorini aniqlash: 1) sanksiyada muayyan turdagi jinoyatning ijtimoiy xavflilik xususiyati va darajasining qonuniy mezon sifatida amal qilishi; 2) jinoyat turini tavsiflovchi odatdagi belgilarning ahamiyatiga baho berish va ularni taqqoslashga yordam berishi; 3) sud jazoni individuallashtirishda tayanishi lozim bo'lgan jazoning namunaviy miqdori sifatida namoyon bo'lishi uchun zarurdir.

Dissertant jinoyat uchun adolatli jazo belgilashda turli jazolar o'rtasidagi shartli nisbatni muayyan miqdorda nazarda tutish lozim (masalan, BHMning o'n baravari ozodlikdan mahrum qilishning bir oyiga mos keladi va h.k.). deb hisoblaydi. Zero JK 61-moddasida jazolarni qo'shish yo'li bilan ularning muddatlarini aniqlash uchun ayrim turdagi jazo muddatlarining ozodlikdan mahrum qilish bilan shartli nisbati belgilanganligi, ya'ni sanksiyadagi jazoning eng ko'p miqdori (muddati) qancha katta

bo'lsa, bunga mutanosib ravishda muqobil jazo miqdori shuncha katta bo'ladi, deb hisoblaydi. Amalda bu og'irlik darajasi har xil bo'lgan jinoyatlar uchun teng jazo tayinlanishi ehtimolini kamaytiradi.

Muallif, jarima jazosini adolatli belgilash uchun uni hisoblash va belgilashda: 1) jinoyat tufayli yetkazilgan zarar miqdoriga nisbatan hisoblanadigan jarima; 2) sodir etilgan jinoyat natijasida qonunga xilof ravishda olingan daromad miqdoriga nisbatan hisoblanadigan jarimadan foydalanish lozim, degan xulosaga kelgan.

Jazo tayinlash sudyaning ichki ishonchiga asoslanishi bilan uzviy bog'liqligidan kelib chiqib, sudyaning ishni ko'rishidagi quyidagi asosiy belgilar farqlanadi:

a) jinoyat huquqi normalari qo'llanganida qonunni qo'llovchiga ichki ishonchiga qarab qaror qabul qilishida nisbiy erkinlik beriladi;

b) qonunni qo'llovchi qaror qabul qilayotganda qonunda belgilangan doiradagina tanlash erkinligiga yo'l qo'yiladi;

v) sudya o'z ichki ishonchiga ko'ra ish ko'rishida qonuniylik, asoslilik va odillik talablariga javob beruvchi qarorlardan birini tanlashi nazarda tutiladi;

g) qarorlardan birini tanlashda sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmishning muayyan holatlari hisobga olinishi shart;

d) qaror qabul qilishda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi talablarining jinoyatni kvalifikasiya qilish va jazo tayinlashga ta'sirini to'g'ri anglashi va qo'llashi lozim.

Dissertant jazo miqdorlarining oraliqlarini belgilashda muvofiqlashtirilgan (tizimli) yondashuvlar adolatli bo'lishi, dispozitsiya qancha tor bo'lsa (masalan, qasddan yoki ehtiyotsizlik orqasida odam o'ldirish), sanksiya doirasi shuncha tor bo'lishi lozimligi va aksincha ekanligini, jazo miqdorining oralig'i uning jinoyat ijtimoiy xavfliligining eng yuqori darajasini tavsiflovchi yuqori chegarasi bilan bog'liq, degan xulosaga kelgan.

Muallif mazkur bobda jazo miqdorini odillik prinsipiga mutanosibligini tahlil qilib, quyidagi asosiy xulosalarga kelgan:

– JK moddalarining javobgarlikni og'irlashtiradigan holatlarda jinoyat sodir etganlik uchun javobgarlik nazarda tutilgan, ozodlikdan mahrum qilish muddatlarining faqat yuqori chegarasi belgilangan sanksiyalarida bu jazo muddatlarining quyi chegaralari ham differentsiatsiya qilinishi lozim, chunki, quyi chegaralarning mavjud emasligi sudga sodir etilgan jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasini jiddiy kamaytiruvchi holatlar (JKning 57-moddasi) mavjud bo'lmasa-da, javobgarlikni og'irlashtiradigan holatlarda sodir etilgan jinoyatlar uchun ozodlikdan mahrum qilishning bir xilda eng kam muddatini tayinlash huquqini beradi;

– jinoyat-huquqiy normalarning sanksiyalari adolatli bo'lishi uchun jinoyatlarning og'irlik darajasiga jazo turlari va miqdorlari (muddatlari) muvofiq bo'lishi zarur;

– JK Maxsus qismi normalarining og'irlik darajasiga ko'ra bir toifadagi jinoyatlar uchun javobgarlik nazarda tutilgan, hozirgi vaqtda turli jazolar belgilangan, shuningdek, aksincha – og'irlik darajasiga ko'ra turli toifadagi jinoyatlar uchun javobgarlik nazarda tutilgan, amalda bir xil jazolar belgilangan sanksiyalari muvofiqlashtirilishi lozim;

– sanksiyalarni odilona belgilashning yana bir sharti – jinoyatlar majmuini hisobga olishdir.

